BUXORO VILOYATI G‘IJDUVON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-dekabr | 454-2-34-Q/24 | G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumanidan o‘tuvchi 4P48 “Zarafshon trakti” avtomobil yo‘lining 271-kilometrida (Chorsu MFY) hamda 273-kilometrida (Sharq MFY) yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida katta hajmli va og‘ir vaznli avtomashinalar qatnovini cheklovchi temir to‘siqlar o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” to‘g‘risidagi PQ-190-sonli qarorining ijrosini ta’minlash hamda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash uchun sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5-, 6- va 25-moddalariga asosan:

QAROR QILAMAN:

1. G‘ijduvon tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi Davlat muassasasining 2024-yil 28-oktabrdagi 02-4- sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. G‘ijduvon tumanidan o‘tuvchi 4P48 “Zarafshon trakti” avtomobil yo‘lining 271-kilometrida (Chorsu MFY) hamda 273-kilometrida (Sharq MFY) yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida katta hajmli va og‘ir vaznli avtomashinalar qatnovini cheklovchi temir to’siqlar va 3.4 (yuk mashinalari harakatlanishini taqiqlovchi) yo‘l belgilari o‘rnatish tashkil etilsin.

3. G’ijduvon tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi Davlat muassasasi (I.Isroilov), tuman hokimligi huzuridagi obodonlashtirish boshqarmasi (M.Umarov) va tuman ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i (J.Hakimov) mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda temir to‘siqlarini 3.4 (yuk mashinalari harakatlanishini taqiqlovchi) yo‘l belgilari yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Tilloyev)ga temir to‘siqlar tashkil etishga sarf qilinadigan mablag‘lar ajratish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror “G‘ijduvon” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Farmonov, tuman ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i N.Boltayev va tuman ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i J.Hakimov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Ashurov**